

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Solliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

O'ZBEK TARJIMASHUNOSLIGI VA CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIGIDA EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR TALQINI

Xurshida Kadirova¹

Abstrakt

Maqola evfemizm va disfemizmlarning o'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida o'rganilganlik darajasiga bag'ishlangan bo'lib, u qiyosiy, tahliliy metod orqali tadqiq etilgan. Mazkur birliklarning yondosh hodisalari haqida ham to'xtalinib o'tilgan, o'rganilgan mavzu yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarilgan. Tarjimashunoslikda evfemik va disfemik birliklarni tarjima qilish usullari, chig'ishtirma tilshunoslikda tillarning tipologik xususiyatlari aniqlangan ishlarga munosabat bildirilgan. Ko'plab olimlarning ishlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *evfemizm, disfemizm, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, o'zbek tilshunosligi.*

KIRISH

O'zbek tilshunosligida evfemizm atamasi 1963-64-yillarda N.Ismatullaevning "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar" nomli dissertatsiyasi [Исмагуллаев, 1963] orqali o'rnashgan bo'lib, olim o'sha yillarda chop etilgan maqolalarida mavjud hodisa haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. [Исмагуллаев, 1963] 1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizmnini "uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzu" [Омонтурдиев, 1997] si sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. Bungacha esa mualliflar jamoasi tomonidan 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" [Шомақсудов, 1983] o'quv qo'llanmasida evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) xususida ma'lum darajada fikr yuritilgan edi.

1 Kadirova Xurshida Batirovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti, filologiya fandlari nomzodi, dotsent.

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Kadirova, X.B. 2024. "O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 109-125.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/WAFS1972

Vaqt o'tib, "til taraqqiyoti, global muammolarning yechimi uslubshunoslikni notiqlik san'ati maqomiga ko'tarishni, jumladan, professional nutqning barcha tarmoqlarini — chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifokor, kurashchi, sovchi, to'quvchi, tikuvchi, temirchi kabilar nutqini fundamental tadqiq qilish, xususan, ularning evfemik vositalarini yozib olish, evfemiologiyani ilmiynazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha – tilshunoslikdan o'sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darslik, lug'at tuzish kabi" [Омонтурдиев, 2009] muammolar yechimini davr taqozo qiladi. A.J.Omonturdiyev muayyan soha evfemizmlari, ya'ni chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingvistik nuqtai nazardan tavsiflashga bag'ishlangan "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi masalalarni hal etish uchun chorvadorlar nutqidagi, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urfodatlari, an'analari, marosimlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qildi.

Boshqa tilshunoslarning tadqiqotlarida ham evfemizm xususida yo'lyo'lakay fikrlar bildiriladi. Masalan, H.Shamsiddinov so'zlarning evfemik funkSIONalsemantik sinonimlari [Шамсиддинов, 1997] haqida fikrmulohazalarini bayon etsa, A.E.Mamatov doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to'xtalib o'tadi. [Маматов, 1999] Shuningdek, ayrim yodgorliklar tili bilan bog'liq ishlarda ham evfemik ma'noga e'tibor qaratiladi. Jumladan, "Boburnoma" leksikasini maxsus tadqiq qilgan olim Z.Xolmanova [Холманова, 2009] unda qo'llangan evfemizmlar xususida ham ba'zi fikrlarni bayon etgan. Olima "Boburnoma"dagi evfemik ifodalar eski o'zbek adabiy tili leksikasining semantik tarkibi, emotsionalekspressiv xususiyatlari, muallifning lingvistik mahorati, badiiy tasvir usuli haqida asosli tasavvur berishini ta'kidlaydi. Ishda "o'lmoq" tushunchasining evfemik birliklari tahlil etilib, uning muayyan semantikuslubiy maqsadlarda qo'llangan shakllari tavsiflanadi.

O'zbek tilshunosligida disfemizmga oid qimmatli mulohazalar M.Mirtojievning "O'zbek tili semasiologiyasi" [Миртожиев, 2011] deb nomlangan monografiyasining evfemizm va disfemizmga ajratilgan maxsus bo'limida bayon etilgan. U O.S.Axmanova, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, I.Qo'ng'urov, M.N.Kojina, I.V.Arnold kabi olimlarning qarashlariga munosabat bildiradi. Shuningdek, olimning disfemizmning boshqa yondosh hodisa (argo, evfemizm, neologizm kabi)larga munosabati haqidagi fikrlari ham biz uchun katta ahamiyatga ega. U o'z monografiyasida "tabu va evfemizm

hodisalarining munosabati, ularning o'rganilish tarixi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Olim evfemik ma'noning hosila ma'no ekanligini, bu hosila ma'nolar metaforik, metonimik usullarida vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma'no paydo bo'lmashligini ta'kidlaydi." [Миртожиев, 2011]

Ammo disfemizmning ham shu kabi stilistik-leksik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikda biroz kechikadi. Zero, *yer tishlamoq, to'ng'iz qo'pmoq, asfalasofinga jo'natmoq* kabi iltifotsiz, masxara, istehzo, qarg'ish kabi qo'pol vositalar, nafaqat badiiy nutqda, balki dialektlarda ham o'rnashib qolgan, so'zlovchi nutqida odatiy ifoda sifatida "o'tirib" qolgan so'z va iboralar talay. Disfemizatsiya ham qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, evfemizmdan farqli o'laroq, kam o'rganilganligining sababini madaniy muloqot me'yorlaridan izlash muhim. Chunki ular, odatda, badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qaralgan.

ASOSIY QISM

Chog'ishtirma tilshunoslikda evfemizm va disfemizmlarning talqini. "Keyingi yillarda evfemizmning turli sohalarda qo'llanilish, ijtimoiy munosabatlardagi ifodasi bilan bog'liq ishlar ham ommalasha boshladi." [Гулямова, 2020]

Qiyosiy tilshunoslikda bu ikki hodisani o'rgangan olim sifatida N.Jo'rayeva [Жўраева, 2022] ni ko'rsata olamiz. U fransuz va o'zbek tillarida evfemizmlarning o'rni, ularning mohiyatini ko'rib chiqib, bu ikki tilda evfemizmlar madaniyat jihatdan tubdan farq qilishini ta'kidlaydi. Biroq quyidagi misollar orqali mushtarak madaniy belgilarini namoyon qiladi: "O'zbek xonadonlarida ayollar o'z turmush o'rtoqlarini boshqalarning oldida ismi bilan atab chaqirishlari erish, hatto, uyat deb qaralgani bois, "dadajonisi" (père de mes enfants), "turmush o'rtog'im" (compagnon de ma vie), "jufti halolim" (mon couple) kabi evfemizmlar paydo bo'lgan. Shu bilan birga, o'zbek madaniyatiga ko'ra erkaklar ham o'z ayollarini "oyijonisi" (mère de mes enfants), "rafiqam" (mon épouse) "ayolim" (ma femme) kabi so'zlar bilan ataydilar. Bu kabi ma'nolarda ifodalash o'rinlarida fransuz erkaklari "ma belle" (моя прекрасная), "ma chérie" (дорогая), "mon cœur" (мое сердце) so'zlaridan foydalanishadi." [Жўраева, 2022]

Ishning ahamiyatli tomoni shundaki, muallif fransuz tilida disfemizm tushunchasi alohida tadqiq obyekti bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Biz ingliz tili borasida shu fikrni tasdiqlagan edik. Tadqiqotchi A.N.Rezanovanning "axloqiy me'yorlarga zid tushuncha"

sifatida baholaganligini sabab qilib ko'rsatadi va "Disfemizm tushunchasining fransuz tilshunosligida o'rganilishini tadqiq qilganimizda olimlar tomonidan bu tushunchaning "dabdali so'zlar", "jarangdor so'zlar", "qo'pol so'zlar", "qo'rs so'zlar", "haqorat va tahqirlar", "til tajovuzlari" kabi variantlarda o'rganilganligining guvohi bo'ldik" [Жўпаева, 2022], deydi.

Chog'ishtirma tahlildan qoniqmagan N.Jo'rayeva o'zining boshqa maqolasini faqat fransuz tilshunosligidagi disfemizmlarning semantik xususiyatlariga bag'ishlab, bu masala ochiq qolganligiga qaramay, mavjud tasniflarga ko'ra fransuzcha disfemik birliklarni alohida tahlilga tortadi. [Жўпаева, 2022] Unda Pyer Giro hamda Kasas Gomeslarning disfemik lingvistik vositalariga ko'ra tasnifiga o'z fikrlarini bildirib, fransuzcha disfemik vaziyatlardan misollar keltiradi. Gap shundaki, Pyer Giro o'zining "Disfemizmning morfosemantika modeliga asoslangan semantik- leksik yondashuvlari" [Guiraud, 1969] nomli ishida ham, Kasas Gomes o'zining "Evfemizm va disfemizmning lingvistik metodlarini tasniflash bo'yicha yondashuvlari" [Casas, 1986] nomli ishida ham disfemizmning lingvistik vositalarini ikki darajaga bo'lganlar. Bular **rasmiiy**, aynan, har xil lingvistik vositalar, masalan, fonetik, morfologik, sintaktik komponentlar; ishora darajalaridir. N.Jo'rayeva ana shu ishora darajasi xususida ilmiy xulosalarini bayon etib, "fransuzcha birliklarda uning ichiga kiruvchi *paralingvistik daraja*, *inonatsiya*, *mimika* kabi belgilarga ega misollar bilan tahlil qiladi. Bu esa fransuz tilida disfemik kayfiyat uyg'otuvchi birliklar ingliz tilidagidek tabuni to'g'ridan to'g'ri ifoda etishdan ancha yashirin, birmuncha madaniy, ko'proq imo-ishoralar, ohanglar orqali ifoda etilishga intilish mavjud ekanligini ko'rsatadi. Muallif fransuzlarda bu birliklarning kelib chiqish sabablari hatto o'rganilmagan" [Жўпаева, 2023]degan xulosaga keladi.

Evfemizmlarning chog'ishtirma tipologiyasi nemis va o'zbek tillararo ham tadqiq etilgan. Unda nemis va ingliz tillari ham evfemizm va evfemistik iboralarga juda boy ekanligi, turli ma'nolar implitsit tarzda ifodalanishi tahlil qilinadi. Evfemizmlar nafaqat nutq jarayonida yoki badiiy adabiyotda qo'pol, uyat so'zlarni boshqa yumshoq, chiroyli so'zlar bilan almashtirishda balki rasmiy yoki diplomatik hujjatlardagi ba'zi so'zlarni, so'z birikmalarini, atamalarini, iboralarni o'rniga ishlatilishi misollar orqali ko'rsatilib beriladi. [Холияров, 2022]

Xitoy va o'zbek tillarida ham evfemizm chog'ishtirma tahlil obyekti bo'lgan. Sh.Q.Shamsiyeva xitoy va o'zbek tillaridagi maishiy

mavzudagi evfemik birliklarini lingvomadaniy jihatdan ko'rib chiqadi va ulardagi umumiyliklarga e'tibor qaratadi. O'lim, kasallik, kasb, jinsiy hayot, keksalik, oila kabi tushunchalar bilan bog'liq evfemik birliklar sharqona madaniyatni o'zida mujassam etgani sababli ko'plab tasnifiy belgilari ham bir-biriga yaqinligi ishda o'z aksini topadi. "Mazkur tillardagi evfemik vositalar ifoda mavzusiga ko'ra ham bir-biriga yaqin va o'xshash". [Шамсиева, 2020]

Tadqiqotchi masalaga texnik yondashib, statistika metodidan samarali foydalangan. Xususan, "xitoy tilida o'lim bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi 750 ga yaqin, jinsiy hayot bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi 520 dan ortiq, ishsizlik va obro'siz kasb bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi 168 ta, keksalik va yosh bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi 20 dan ortiq evfemizm borligi, o'zbek tilida esa o'lmoq tushunchasi bilan bog'liq 370 ta, jinsiy aloqa tushunchasini ifodalaydigan 150 ga yaqin, tug'moq tushunchasiga oid 30 dan ortiq evfemizmlari borligi", shuningdek, "...xitoy tilidagi evfemizmlarning 312 tasi keltirilgan bo'lib, ulardan: 14 tasi 1 bo'g'inli, 140 tasi 2 bo'g'inli, 48 tasi 3 bo'g'inli, 91 tasi 4 bo'g'inli, 16 tasi 5 bo'g'inli va 6 tasining 6 bo'g'inli ekanligi aniqlandi." [Шамсиева, 2020] Bunday yondashuv asosida ikki tilning mazkur nutqiy birliklardan foydalanish darajasining muayyan kartinasi hosil bo'ladi. Jumladan, o'lim bilan bog'liq tushunchalar xitoy tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatish mumkin.

S.Xajiyev [Хажиев, 2019] evfemizmlarning hozirgi o'zbek, fransuz, ingliz tillaridagi funksional semantik xossalarini o'rganib, uning badiiy asarlarda ko'roq uchrashini, rasmiy va diplomatik hujjatlarda esa ishlatilmaganligini, biroq hozirgi davrga kelib vaziyat o'zgarganligini aytadi. Madaniy muloqot rivojlanishi natijasida evfemizmlarni qo'llash odatiy hol bo'lib qolganligini ta'kidlaydi va o'zbek, fransuz va ingliz tillaridagi oxirgi o'n yil mobaynida qo'llanilgan rasmiy va diplomatik matnlardagi evfemizmlardan misollarni tahlil qiladi.

Zamonaviy tilshunoslik tilning nutq birliklari, ya'ni baholovchi stilistik vositalarni o'rganish, xususan, muloqotning institutsional sohalarida bu birliklarning qo'llanilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, evfemizm va disfemizm hodisasi tilshunoslikning yangi aspektlarida tekshirmoqda. Ushbu hodisalarni tipologik o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq, evfemizmga nisbatan disfemizmga biroz kam e'tibor qaratiladi. "Agar, – deydi M.S.Pestova, – lug'atda *evfem.* yoki *evf.* ishoralari allaqachon tanish bo'lgan bo'lsa, *disfem.* yoki

disf. ishorasi juda kam uchraydi.” [Пестова] Asosan OAVda, siyosiy diskursda, u ham bo'lsa, Yevropa tillari disfemizmlari tadqiqiga bag'ishlangan maqolalarda kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida disfemizm (kakofemizm), xuddi vulgarizm, varvarizm kabi salbiy hosila ma'noli birliklar kabi, siyosiy diskurs hamda OAV tilidagi o'rni tadqiq manbai bo'lmagan. Sababini madaniy muloqot me'yorlaridan izlash, mazkur birliklarni davr illatlariga munosabat, siyosiy yetuklik va kinoyaga moyillik bilan baholash lozim. Chunki ular, odatda, badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan qo'llanilishi cheklangan birlik sifatida qaralgan.

Disfemizmlarni alohida guruhga ajratish, vulgarizm va argodan farqlash qiyin, chunki bu guruhlarning leksik tarkibi to'la mos kelishi mumkin, lekin farqlar leksik qiymatida emas, balki nutqda foydalanilish darajasi, maqsadi va o'rnidadir. Disfemizmlar, asosan, haqorat, so'kish, qarg'ish bilan chegaralanadi. “Haqorat, keng ma'noda so'kinish sifatida turli shakllarda: bolalarcha hazil-mazaxdan tortib to haqorat va qarg'ishgacha bo'lishi mumkin. Ammo ularning barchasi odatda inkor etish, qabul qilmaslik yoki xafa qilish, kamsitish mazmuniga ega, ular muloqot sherigining salbiy bahosiga asoslangan. U muloqot muhiti hisobanadi.” [Федорова, 2004]

O.D.Pastuxova ham vulgarizm va disfemizmlarni boshqa-boshqa hodisalar sifatida ajratadi:

“1. Birinchisi tilning leksik vositalar tizimiga, ikkinchisi – nutqiy hodisa tizimiga kiradi;

2. Vulgarizmlar disfemizm sifatida odatiy vazifa bilan birga ular boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin – bu subyektning propozitsional maqsadiga, suhbatdoshining kooperativ darajasiga va umuman nutq vaziyatiga bog'liq.” [Пастухова, 2026]

Bu hodisani tillararo o'rganishda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: yevropa tillarida turli sohalarda, ayniqsa, siyosiy diskursda [Стасюк, 2015; Гилязова, 2013; Ищенко; Касатова, 2014, Обвинцева, 2018, Кондратенко, 2018; Чепорухина, 2021], va hattoki, koronavirus mavzusidagi OAV tilida qo'llanilgan disfemizmlar [Агафонова, 2020] ilmiy munozara mavzusiga aylangan. O'zbek tilida esa bu birliklardan o'quvchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun ko'proq badiiy adabiyotda foydalanilganligini va uning tadqiqi ham shu doirada bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

Rus tilshunosligida *политкорректность* deb ataluvchi institutsional muloqot amaliyotida xushmuomalalik me'yorlarini

tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy tushuncha paydo bo'lib, o'sha me'yorning lingvistik tahlili, qoidasi bo'yicha, femalar deb ataluvchi doiralarda amalga oshiriladi. Bular – evfemizm, disfemizm va ortofemizm deb ataladi. “*Ortho* – prefiksi grekcha *orthos* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, to'g'ri (shakl ma'nosida), haqiqat, to'g'ri (xususiyat ma'nosida), muqim (*прямой, истинный, правильный, постоянный* – *straight, true, correct, regular*) degan ma'nolarni bildiradi.” [Дружинин, 2020] Buni *политкорректность* atamasiga sinonim bo'la olishiga asosdir. Masalan, K.Allan hamda K.Barridj [Allan, Burrige, 2006] evfemizmlarni ohangdor va muloyim ifodalar, disfemizmlarni qo'pol, haqoratli, ortofemizmlarni betaraf (xolis) so'zlar deb aytadilar; iks-femiyaning esa shu uch hodisani umumlashtiruvchi giperonim termin sifatida qabul qiladilar. Faqat so'nggi ikki atama o'zbek tilshunosligida uchramaydi. Odatda, tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalinmay, ko'pincha unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berib ketiladi. [Шомақсудов, Расулов, Қўнғуров, Рустамов, 1983]

Shu ma'noda, o'zbek tilshunosligi bilan yevropa tilshunosligi orasida disfemizmni o'rganish, ilmiy talqin qilish borasida katta farq bo'lmay, ularda faqat davriy nuqtai nazardan tafovut borligini xulosa qilish mumkin.

Ayniqsa, 1948-yil 10 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan “Inson huquqlari Deklaratsiyasi” va so'z erkinligi to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi natijasida G'arb OAV va boshqa axborot manbalarida disfemizmlardan foydalanish ommalashib, uni o'rganish, tasnif qilish, talqin va tahlil etish davr taqozosi sifatida qaraldi. [Резанова, 2008]

O'zbek tilida bunday erkinlik ichki madaniyat bilan shakllanib, o'zbek xarakteridagi bunday belgilar faqat so'zlashuv nutqida va qisman badiiy adabiyotlarda foydalanish bilan chegaralanib qolinadi. Shu o'rinda tadqiqotchi Y.F.Bex “Zamonaviy ingliz tilidagi yozuvchilarning disfemizm va vulgarizmlardan foydalanishi oqlanadimi yoki bu muallifning ko'chimlaridan, va umuman, yozish boyligining soddalashtirilgan o'rnini bosishdan boshqa narsa emasmi” [Бех, 2017] deya haqli savolni o'rtaga tashlaydi. Zero, muallifning etnik madaniyat belgisi uning nutq birliklaridan foydalanishda o'z aksini topadi, deb qabul qilib kelganmiz. Biroq Y.F.Bex va boshqa g'arb tadqiqotchilari yevropa madaniy nuqtai nazari bilan buni yoqlaydilar: “disfemizmni oddiy muloqot o'rnida kamsitish va haqorat qilish uchun ishlatiladigan stilistik figura deb qayd qilishadi. Yozuvchining ijobiy emas, balki salbiy stilistik

rang berishidir. Adabiyotda bu ko'chim ba'zi lirik qahramonlarning boshqalarga ma'qul bo'lmagan munosabatini qo'pol, tushkunlikka tushiruvchi, kamsituvchi tarzda yetkazadi, xolos", deydi.

O'zbek milliy tilida ijod qiluvchi adiblar qahramon tilini ham o'quvchiga beparдоз namoyish qilmaydi, salbiy qahramonning og'ziga ham faqat pardalangan so'zlarni "soladi", uni ham, kim va qanday odam bo'lishidan qat'i nazar, milliy ibo va andishadan xoli ko'rmaydi, tilning kir tomonini ko'rsatmaydi. Y.F.Bexning fikricha esa "badiiy asarlarda disfemizmning qo'llanishi maqsadga muvofiqligi haqidagi savolga qarshi tanqidchilar va o'quvchilarning fikrlari munozarali ekanligini, masalan, Shotlandiya yozuvchisi Jenni Faganning "Panoptikon" romani har xil haqoratli iboralar bilan liq to'la ekanligini, biroq bu muallif tomonidan mohirona ishlatilgan har xil haqoratlar tufayli o'quvchidan yuqori baho olishiga erishganini yozadi. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchi zamonaviy adabiy asar sahifalarida mashhur qarg'ishlarni qayta kashf etishga qiziqar emish." [Bex, 2017]

Bunga qiziqish ommaviy saviya bilan belgilanishini ta'kidlash joiz. Disfemizatsiya ko'proq zamonaviy so'zga erkin qatlamdagi jamiyatda sun'iy "man etish" madaniyatining mavjud emasligi, shuningdek, o'z nutqini yanada jonli va ta'sirchan qilishga intilish yoki aholining turli qatlam vakillari uchun afzal hisoblangan nutqqa yaqinlashish istagining yo'qligi bilan bog'liq. "O'zbek tilida uning o'rnida "inson aql-zakovatining oliy formasi", "qaymog'i", voqelikning pardoizlangan, "parda ichiga olingan", beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasi" [Омонтурдиев, 2006] – evfemizmlardan, askiya va payrovlardan foydalaniladi.

Tarjimashunoslikda evfemizm va disfemizmlarning talqini. Tarjima ikki millat va til o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi, madaniyat elementlarini tarjima qilish orqali boshqa til muhitiga uzatish murakkab jarayon hisoblanadi. Demak, u xorijiy madaniyat bilan yuzlashishga majbur qiladi. Bu masalada o'zbek tarjimashunosligida monografik ishlar qilinmagan bo'lsa-da, ayrim kichik izlanishlar amalga oshirilgan, mulohaza va takliflar maqola va tezislarda uchraydi. Xususan, I.M.Tuxtasinov quyidagi fikrlarni o'z maqolasida bayon etadi: "Tarjima uchun tanlangan eng yaxshi so'zlar – barcha uchun tushunarli so'zlardir. So'zlar turli madaniyatlar rivojida ijobiy va salbiy ma'nolar tashiydi. Aytib o'tganimizdek, o'ta salbiy ma'noli so'zlar o'rniga evfemizmlar qo'llaniladi. Evfemizmning mavjudligi o'sha so'zning o'ta salbiy ma'noli ekanidan dalolat beradi. Ba'zi madaniyatlarda o'lgan inson nomini aytish

taqiqlanadi. Boshqalarida esa bolalarni o'tgan ajdodlari nomi bilan atash ijobiy munosabat belgisidir. Bundan tashqari, ijobiy tabular ham bo'lishi mumkin. Masalan: yahudiy aholisi hurmat bilan Xudo nomini evfemistik yo'l bilan ifodalaydilar. Bu ism oddiy suhbatlarda qo'llanilmay, oson, "hammadan ulug'" kabi so'zlar ishlatiladi. Bu kabi so'zlar adabiy tarjimada hisobga olinishi zarur." [Тухтасинов, 2017] Muallif bunday birliklarning tarjima usullarini tadqiq etmaydi, shunchaki ekvivalentlar tanlashdagi chegaralardan, madaniy belgilardan xabardor bo'lish haqida mulohaza yuritadi. Shunday bo'lsa-da, ikki tilning madaniy o'ziga xosliklari haqida axborot beruvchi keltirilgan misollar o'zbek qiyosiy-chog'ishtirama tilshunosligi va tarjimashunosligi uchun katta ahamiyatga ega. Masalan: "...Madaniyat so'zlarning ishlatilishida aks etadi. Masalan, Amerikada "qo'y" so'zini o'ylamasdan ish qiladigan, kamgap, bosiq insonlarga nisbatan qo'llashadi. O'zbekistonda "paxta" so'zi ko'p qo'llanadi, ammo bu so'z Buyuk Britaniyada g'o'za o'stirilmagani bois qo'llanilmaydi... Bir-biriga ekvivalentdek ko'rinadigan so'zlar aslida ekvivalent bo'lmasliklari mumkin. Masalan, "cho'chqa" so'zi o'zbek tilida ma'lum darajada salbiy bo'yoqqa ega. Ammo Amerikada "pig" so'z neytral ma'noda qo'llanadi. "Swine" so'zida bu salbiylik yo'q... Turli madaniyatlar turli yo'nalishga ega. Masalan, o'zbek madaniyatida ko'proq bog'dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, maishiy hayot manzaralari katta o'rin tutadi, Amerikada esa ish, pul topish, sport, foyda olishga diqqat-e'tibor kuchli." [Тухтасинов, 2017]

Bu ish umuman madaniy belgilarga ega birliklar tarjimasiga oid bo'lsa, aynan evfemizmlarning o'zbek tiliga tarjimasiga masalasi G.Shamuratova [Шамуратова, 2017] tadqiqotining obyektini tashkil qiladi. Nemistilibilano'zbektilinutqiybirligio'zarocho'g'ishtirilganda, "jonlilik" belgisi ustun turuvchi o'zbek tilidan nemis tilining jonsizligi bu tilning badiiy uslubida evfemistik birliklarning inkor etilmasligi kuzatiladi. Ya'ni nemis tilida ham "piching" evfemizmlar, "sof" evfemizmlar yoki "odoblilikni ta'minlovchi" evfemizmlar, "xushmuomalak uchun xizmat qiluvchi" evfemizmlar, "tashviqotda qo'llaniladigan" evfemizmlar kabilarning farqlanishi adabiyotlarda qayd etiladi. Ushbu tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, nemis tilidan tarjima qilingan asarlardagi evfemik birliklar statistik tahlil qilinib, ushbu birliklarning asosiy usullari quyidagi kartinani hosil qiladi:

"Итак, в количественном отношении из 129 эвфемизмов получилось следующая картина основных способов перевода

эвфемизмов: 1. Сохранение эвфемизмов оригинала в переводе – 44 случаев; 2. Исчезновение или потеря эвфемизмов – 8 случаев; 3. Превращение эвфемизма в другие стилистические явления при переводе – 1 случай; 4. Замена эвфемизма оригинала другой его разновидностью в тексте перевода – 14 случаев; 5. Появление эвфемизмов в переводе, отсутствующих в оригинале – 61 случаев.” [Шамуратова, 2017]

Buni diagramma shaklida quyidagicha aks ettirish mumkin:

Ushbu holat o‘zbek tilining evfemizatsiyaga moyilligini ko‘rsatadi. Muallif tarjimonlarning mahorati, uslubiga oid mulohazalarini misollar asosida bayon qiladi, aksariyat hollarda, ularning perefrazalardan foydalanganligi ta’kidlanadi.

“Kinodiskurs tarjimasida evfemizatsiya, disfemizatsiya va ortofemizatsiya voqelanishining kontekstual-situativ va sotsiokommunikativ tamoyillari” [Рабиева, 2023] nomli monografik tadqiqot bu boradagi yangi ishlardan hisoblanadi. Ishning muhim jihati tarjimada madaniy qayta kodlash masalasidir. Unda evfemizmlarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tarjima jarayonida tarjimon uchun qiyinchilik tug‘diradigan “nozik” jihatlari misollar orqali tahlilga tortiladi. Kinodiskursga oid iks-femik birliklar tarjimasiga oid bo‘lsa-da, tarjimashunoslikda qo‘llaniladigan birliklarning quyidagi eng faol usullari qayd qilinadi: *kalkalash*, *qo‘shish*, *aniqlashtirish*, *umumlashtirish*. Shuningdek, tarjimada bu birliklar o‘zgaruvchan metakommunikativ bo‘lishi, spontan tabiatga egaligi ta’kidlanadi. Darhaqiqat, bu birliklarning tarjimasi ma’noning pragmatik elementlarini hisobga olishni talab etadi. Chunki turli tillarda iks-femik birliklarning asimmetrik pozitsiyasi tarjima tilida konnotativ ekvivalentligini ta’minlash vazifasini belgilaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, a) o‘zbek tilining iks-femik birliklari, asosan, ingliz, fransuz, xitoy va nemis tillari bilan qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikda muayyan darajada tadqiq qilingan. Rus tili birliklari bilan tipologik yoki tarjima masalalari ochiq qolgan; b) qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslikda ko‘proq “jonli” tillar (xitoy, fransuz) bilan muqoyasa qilinsa, tarjimashunoslikda “quruq” tillar (ingliz, nemis) bilan, ya’ni iks-femik birliklarni tarjima qilish muammo bo‘lgan tillar bilan birga o‘rganiladi; c) o‘zbek qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunosligi va tarjimashunosligida tipologik yondashuv rus va boshqa tillardagi

типологик yondashuvdan ancha orqada ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu masalaning turli aspektdagi tadqiqi dolzarblik kasb etadi; d) o'zbek qiyosiy tilshunosligida statistik oynalar kam uchraydi. O'zbek tarjimashunosligida esa tarjima usullari rus tarjimashunosligiga nisbatan kam tahlilga tortilganligiga guvoh bo'lamiz. Shunday bo'lsa-da, barcha talqinlar kelgusi ishlar uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar

- Абдурахмонова, М. 2022. Ўзбек тилида касаллик номларининг дисфемизацияси // SAI. №B8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilida-kasallik-nomlarining-disfemizatsiyasi-1>
- Агафонова, О.И., Белозерова М.С. 2020. Дисфемизмы и эвфемизмы в медийном дискурсе на примере публикаций о коронавирусе. // Казанская наука. №5 – Казань, – С. 52-54.
- Allan, K., Burridge, K. 2006. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, P.29. – 303 p.
- Бех, Е.Ф. 2017, Употребление дисфемизмов современными англоязычными авторами. // Успехи современной науки и образования. – Белгород, Том 3, №1. – С. 137-139.
- Бойко, Т.В. 2008. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург.
- Гилязова, И.Р. 2013. Прагматика эвфемизмов и дисфемизмов в языке англоязычной и татарской прессы. // Вестник КГТУ им. А.Н. Туполева. 234 № 2, вып. 2.
- Гулямова, Ш.К. 2020. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари. Автореф. дисс... фил. фан. бўйича фал.док. (PhD)... – Бухоро, – 58 б.
- Guiraud, Pierre. 1969. La Sémantique. Presses Universitaires de France.
- Дружинин, А.С., Фомина, Т.А., Поляков О.Г. 2020. Эвфемизмы, дисфемизмы, ортофемизмы и экспериенциальный контекст: холистический взгляд на лингвистическую проблему // Язык и культура. № 50. С. 23-40. DOI: 10.17223/19996195/50/3
- Жўраева, Н. 2022. Француз ва ўзбек тилларида эвфемик ва дисфемик бирликларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 26. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8526
- Жўраева, Н. 2022. Француз тилшунослигида дисфемизмларнинг семантик хусусиятлари. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 24 (24). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8248
- Жўраева, Н. 2023. Дисфемизмнинг социопрагматик хусусиятлари хусусида. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28 (28). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8776
- Исмагуллаев, Н. 1963. Эвфемизмы в современном узбекском языке:

- Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, – С.19.
- Исматуллаев, Н. 1963. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар // ТошД-ПИ илмий асарлари. – Тошкент, 1-китоб. Т.42. – Б. 8, 19-28, 3-59;
- Исматуллаев, Н. 1964. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти // ТошДПИ илмий асарлари. – Тошкент, 2-китоб. – Б. 3-12.
- Ищенко, И.Г. Современные тенденции использования эвфемизмов и дисфемизмов в британской прессе. // Известия ВГПУ. Филологические науки. – С. 116-117 <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-ispolzovaniya-evfemizmov-i-disfemizmov-v-britanskoy-presse/viewer>
- Casas Gómez, Miguel. 1986. La interdicción lingüística: Mecanismos del eufemismo y disfemismo, Cádiz, Universidad de Cádiz.
- Кадилова, Х. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Кадилова, Kh. Problems of translation of Uzbek euphemism into Russian. https://tsuull.uz/sites/default/files/2.1_oak_ozmu_xabarlari_0.pdf
- Kadirova, X. 2022. O'zbek ismlarida evfemizatsiya va uning disfemizatsiyalashuviga oid muammolar // ORIENSS. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-ismlarida-evfemizatsiya-va-uning-disfemizatsiyalashuviga-oid-muammolar>
- Касатова, И.А. 2014. Эволюция политических эвфемизмов и дисфемизмов в английском языке (на примере лексемы “коммунист”) // Вестник МГЛУ. Выпуск 20 (706). – С.103-109.
- Кондратенко, Е.Н. 2018. Эвфемизмы и дисфемизмы как близкие по значению слова (на материале новостных порталов сети интернет) // Теория языка и межкультурная коммуникация. Учредители: Курский государственный университет (Курск). №4(31). – С. 123-128.
- Маматов, А.Э. 1999. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент.
- Миртожиев, М. 2011. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз.
- Обвинцева, О.В. 2018. Дисфемизмы как средства реализации стратегии дискредитации в англоязычных средствах массовой коммуникации. // Политическая лингвистика. 3 (69) 2018. ФГБОУ ВО “Уральский государственный педагогический университет”. – С. 63-68.
- Омонтурдиев, А.Ж. 2009. Профессионал нутқ эвфемикаси (Чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент.

- Омонтурдиев, А.Ж. 1997. Эвфемик воситаларнинг функционал хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, – 176 б.
- Пастухова, О.Д. 2016. От эвфемизма к дисфемизму. // Слово, высказывание, текст в когнитивном, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции. – Челябинск, 20-22 апреля 2016 года. Из-во: Энциклопедия. – С. 329-331.
- Пестова, М.С. Эмотивность и оценочность как основные компоненты коннотации дисфемистичных фразеологических единиц, построенных на гиперболе, в английском и русском языках. <https://cyberleninka.ru/article/n/emotivnost-i-otsenochnost-kak-osnovnye-komponenty-konnotatsii-disfemistichnyh-frazeologicheskikh-edinit-postroennyh-na-giperbole-v/viewer>
- Рабиева, М.Ф. 2023. Кинодискурс таржимасида эвфемизация, дисфемизация ва ортофемизация воқеланишининг контекстуал-ситуатив ва социокоммуникатив тамойиллари: Фил. фан бўйича фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, – 52 б.
- Резанова, А.Н. 2008. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург.
- Стасюк, А.С. 2015. Прагматические характеристики дисфемизмов в парламентском дискурсе ФРГ и Швеции. // Риторика. Лингвистика. Смоленский государственный университет – Смоленск, № 11, – С. 300-306.
- Тухтасинов, И.М. 2017. Таржимада мослашиш ҳолатлари. // Хорижий филология. №2, 4-9-б. <http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2017/2/Tuxtasinov-I.pdf>
- Федорова, Л.Л. 2004. Прямое выражение агрессии в речевом общении / Л.Л. Федорова // Агрессия в языке и речи. – М., – С. 219-232.
- Хажиев, С. 2019. Эвфемизмларнинг ҳозирги замон ўзбек, француз, инглиз тилларидаги функционал семантик хоссалари. // “Таржимашуносликнинг долзарб масалалари: таржима назарияси ва амалиёти, лингвокультурология ва туризм соҳаларининг узвий боғлиқлиги” мавзусидаги Республика илмий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, – 268 б. – Б.124-126.
- Холияров, Л.Т. 2022. Немис ва ўзбек тилларидаги эвфемизмларнинг функционал семантик хусусиятлари. Архив научных исследований, 2 (1). <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1435>
- Холманова, З.Т. 2009. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент.
- Чепорухина, М.Г. 2021. Эвфемизмы и дисфемизмы в новостной интернет-статье и комментариях к ней. // Политическая лингвистика. – № 1 (85). – С. 95-102.

- Шамсиддинов, Х. 1997. Сўзларнинг эвфемик функционалсемантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, – № 6. – Б. 22.
- Шамсиева, Ш.Қ. 2020. Хитой ва ўзбек тилларидаги маиший эвфемизмларнинг лингвомаданий тадқиқи. Автореф. дисс... фил. фан. бўйича фалс. док. (PhD).... – Тошкент, – 53 б. <https://studylib.net/doc/26032794/shamsieva-avtoreferat-2020.18.12>
- Шамуратова, Г.Ю. 2017. О проблемах перевода эвфемизмов с немецкого языка на узбекский язык / Г.Ю.Шамуратова. – Текст: непосредственный // Филология и лингвистика. – № 2 (6). – С.84-85. – URL: <https://moluch.ru/th/6/archive/59/2523/>
- Шомақсудов, А., Расулов, И., Қўнғуров, Р., Рустамов, Х. 1983. Ўзбек тили стилистикаси. — Тошкент: Ўқитувчи, – Б. 148.

INTERPRETATION OF EUPHEMISM AND DISPHEMISM IN UZBEK TRANSLATION STUDIES AND COMPARATIVE LINGUISTICS

Khurshida Kadirova¹

Abstract

The article is devoted to the level of study of euphemisms and dysphemisms in Uzbek translation studies and comparative linguistics and is studied using the analytical method. Similar units of euphemisms and dysphemisms were also examined and scientific conclusions were drawn on the topic under study. The author comments on the methods of translating euphemic and dysphemic units in translation studies, the typological characteristics of languages in comparative linguistics. The work of many scientists will be analyzed.

Key words: *euphemism, dysphemism, comparative linguistics, translation studies, uzbek linguistics.*

References

- Abduraxmonova, M. 2022. O'zbek tilida kasallik nomlarining disfemizatsiyasi // SAI. №B8. URL: <https://cyberleninka.ru/>

¹Kadirova Khurshida Batirovna – candidate of philological sciences, associate professor of the department of Uzbek language education in foreign language groups, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

For citation: Kadyrova, Kh.B. 2024. "Interpretation of euphemism and dysphemism in uzbek translation studies and comparative linguistics". *Uzbekistan: language and culture. Issues of applied philology*. 2(5): 109-125.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/WAFS1972

- article/n/zbek-tilida-kasallik-nomlarining-disfemizatsiyasi-1
- Agafonova, O.I., Belozerova M.S. 2020. Disfemizmi i evfemizmi v mediynom diskurse na primere publikatsiy o koronaviruse. // Kazanskaya nauka. №5 – Kazan, – S. 52-54.
- Allan, K., Burridge, K. 2006. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, P.29. – 303 p.
- Bex, Ye.F. 2017, Upotreblenie disfemizmov sovremennimi angloyazichnimi avtorami. // Uspexi sovremennoy nauki i obrazovaniya. – Belgorod, Tom 3, №1. – S. 137-139.
- Boyko, T.V. 2008. Evfemiya i disfemiya v gazetnom tekste: diss. kand. filol. nauk. – Sankt-Peterburg.
- Gilyazova, I.R. 2013. Pragmatika evfemizmov i disfemizmovv yazike angloyazichnoy i tatarskoy pressii. // Vestnik KGTU im. A.N. Tupoleva. 234 № 2, vip. 2.
- Gulyamova, Sh.K. 2020. O'zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari. Avtoref. diss... fil. fan. bo'yicha fal.dok. (PhD). – Buxoro, – 58 b.
- Guiraud, Pierre. 1969. La Sémantique. Presses Universitaires de France.
- Drujinin, A.S., Fomina, T.A., Polyakov O.G. 2020. Evfemizmi, disfemizmi, ortofemizmi i eksperimentialniy kontekst: xolisticheskiy vzglyad na lingvisticheskuyu problemu // Yazik i kultura. № 50. S. 23-40. DOI: 10.17223/19996195/50/3
- Jo'raeva, N. 2022. Frantsuz va o'zbek tillarida evfemik va disfemik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu.Uz), 26. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8526
- Jo'raeva, N. 2022. Fransuz tilshunosligida disfemizmlarning semantik xususiyatlari. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu.Uz), 24(24). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8248
- Jo'raeva, N. 2023. Disfemizmnining sotsiopragmatik xususiyatlari xususida. Sentr nauchnix publikatsiy (buxdu.Uz), 28 (28). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/877
- Ismatullaev, N. 1963. Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Toshkent, – S.19.
- Ismatullaev, N. 1963. Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar // ToshDPI ilmiy asarlari. – Toshkent, 1-kitob. T.42. – B. 8, 19-28, 3-59;
- Ismatullaev, N. 1964. Evfemizmlarning lug'at sostavini va so'z ma'nolarini boyitishdagi ahamiyati // ToshDPI ilmiy asarlari. – Toshkent, 2-kitob. – B. 3-12.
- Ishenko, I.G. Sovremennie tendentsii ispolzovaniya evfemizmov i disfemizmov v britanskoy presse. // Izvestiya VGPU. Filologicheskie nauki. – S. 116-117 <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-ispolzovaniya-evfemizmov-i-disfemizmov-v-britanskoy-presse/viewer>
- Casas Gómez, Miguel. 1986. La interdicción lingüística: Mecanismos del eufemismo y disfemismo, Cádiz, Universidad de Cádiz.

- Kadirova, X. 2021. Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode. // ELMĠ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Kadirova, Kh. Problems of translation of Uzbek euphemism into Russian. https://tsuull.uz/sites/default/files/2.1._oak_ozmu_xabarlari_0.pdf
- Kadirova, X. 2022. O'zbek ismlarida evfemizatsiya va uning disfemizatsiyalashuviga oid muammolar // ORIENSS. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-ismlarida-evfemizatsiya-va-uning-disfemizatsiyalashuviga-oid-muammolar>
- Kasatova, I.A. 2014. Evolyutsiya politicheskix evfemizmov i disfemizmov v angliyskom yazыke (na primere leksemy "kommunist")// Vestnik MGLU. Vipusk 20 (706). – S.103-109.
- Kondratenko, Ye.N. 2018. Evfemizmi i disfemizmi kak blizkie po znacheniyu slova (na materiale novostnix portalov seti internet)// Teoriya yazika i mejkulturnaya kommunikatsiya. Uchrediteli: Kurskiy gosudarstvenniy universitet (Kursk). №4(31). – S. 123-128.
- Mamatov, A.E. 1999. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent.
- Mirtojiev, M. 2011. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z.
- Obvintseva, O.V. 2018. Disfemizmi kak sredstva realizatsii strategii diskreditatsii v angloyazichnykh sredstvax massovoy kommunikatsii. // Politicheskaya lingvistika. 3 (69)'2018. FGBOU VO "Uralskiy gosudarstvenniy pedagogicheskii universitet". – S. 63-68.
- Omonturdiev, A.J. 2009. Professional nutq evfemikasi (Chorvadorlar nutqi misolida): Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent.
- Omonturdiev, A.J. 1997. Evfemik vositalarning funktsional xususiyatlari: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, – 176 b.
- Pastuxova, O.D. 2016. Ot evfemizma k disfemizmu. // Slovo, vyskazyvanie, tekst v kognitivnykh, pragmaticheskoy i kul'turologicheskoy aspektax. Materialy VIII Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii. – Chelyabinsk, 20-22 aprelya 2016 goda. Iz-vo: Entsiklopediya. – S. 329-331.
- Pestova, M.S. Emotivnost i otsenochnost kak osnovnie komponenti konnotatsii disfemistichnix frazeologicheskix yedinit, postroennix na giperbole, v angliyskom i russkom yazikax. <https://cyberleninka.ru/article/n/emotivnost-i-otsenochnost-kak-osnovnye-komponenty-konnotatsii-disfemistichnyh-frazeologicheskix-edinits-postroennyh-na-giperbole-v/viewer>
- Rabieva, M.G'. 2023. Kinodiskurs tarjimasida evfemizatsiya, disfemizatsiya va ortofemizatsiya voqelanishining kontekstual-situativ va sotsiokommunikativ tamoyillari: Fil. fan bo'yicha fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Buxoro, – 52 b.

- Rezanova, A.N. 2008. Disfemiya v angliyskom yazike: semanticheskie mexanizmy i pragmaticheskie funktsii: Diss.... kand. filol. nauk. – Sankt-Peterburg.
- Stasyuk, A.S. 2015. Pragmaticheskie xarakteristiki disfemizmov v parlamentskom diskurse FRG i Shvetsii. // Ritorika. Lingvistika. Smolenskiy gosudarstvenniy universitet – Smolensk, № 11, – S. 300-306.
- Tuxtasinov, I.M. 2017. Tarjimada moslashish holatlari. // Xorijiy filologiya. №2, 4-9-b. <http://samxorfil.uz/images/source/pdf/2017/2/Tuxtasinov-I.pdf>
- Fedorova, L.L. 2004. Pryamoe virajenie agressii v rechevom obshenii / L.L. Fedorova // Agressiya v yazike i rechi. – M., – S. 219-232.
- Xajiev, S. 2019. Evfemizmlarning hozirgi zamon o'zbek, fransuz, ingliz tillaridagi funksional semantik xossalari. // "Tarjimashunoslikning dolzarb masalalari: tarjima nazariyasi va amaliyoti, lingvokulturologiya va turizm sohalarining uzviy bog'liqligi" mavzusidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, – 268 b. – B.124-126.
- Xoliyarov, L.T. 2022. Nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning funksional semantik xususiyatlari. Arxiv nauchnix issledovaniy, 2 (1). <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1435>
- Xolmanova, Z.T. 2009. "Boburnoma" leksikasi tadqiqi: Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent.
- Cheporuxina, M.G. 2021. Evfemizmy i disfemizmi v novostnoy internet-state i kommentariyax k ney. // Politicheskaya lingvistika. – № 1 (85). – S. 95-102.
- Shamsiddinov, H. 1997. So'zlarning evfemik funktsional-semantik sinonimlari // O'zbek tili va adabiyoti, – № 6. – B. 22.
- Shamsieva, Sh.Q. 2020. Xitoy va o'zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi. Avtoref. diss... fil. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD).... – Toshkent, – 53 b. <https://studylib.net/doc/26032794/shamsieva-avtoreferat-2020.18.12>
- Shamuratova, G.Yu. 2017. O problemax perevoda evfemizmov s nemetskogo yazika na uzbekskiy yazik / G.Yu. Shamuratova. – Tekst: neposredstvenniy // Filologiya i lingvistika. – № 2 (6). – S.84-85. – URL: <https://moluch.ru/th/6/archive/59/2523/>
- Shomaqsudov, A., Rasulov, I., Qo'ng'urov, R., Rustamov, H. 1983. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O'qituvchi, – B. 148.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.